

O'SMIRLAR HUQUQBUZARLIGINING OLDINI OLIISHDA IJTIMOIIY ISHNING ASOSIIY YO'NALISHLARI, PRINSPLARI

Nazarova R.S.

Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi mutaxassisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7220961>

Ijtimoiy fanlar jinoyatga jamiyat uchun halokatli ijtimoiy hodisa sifatida qaraydi. Bu deviant xulq-atvorning nisbatan barqaror keng tarqalgan, ijtimoiy xavflilik darajasiga yetgan shaklidir.

Voyaga yetmagan huquqbuzarlar bilan ijtimoiy ish - bu voyaga yetmaganlarga ijtimoiy funksiyalarini to'g'ri yo'lga qo'yish yoki tiklashga yordam berishning kasbiy faoliyati; jamiyatda ushbu maqsadlarga erishish uchun qulay sharoitlarni yaratishdir .

Voyaga yetmagan jinoyatchilar bilan ijtimoiy ish olib borish yo'nalishlaridan biri bu profilaktika hisoblanadi. Voyaga yetmaganlarning nazoratsizligi va huquqbuzarliklarining oldini olish - bu individual yoki jamoaviy holda profilaktika ishlari bilan birgalikda olib boriladigan ijtimoiy, pedagogik va boshqa tadbirlar tizimi.

Zamonaviy jamiyatda voyaga yetmaganlar huquqbuzarligi muammosi eng murakkab, jiddiy va ziddiyatli hodisalardan biridir. Bu holatni ijobiy tomonga o'zgartirishni faqat yaxshi ta'lim olgan, o'quvli, tajribali va uyushgan mutaxassislar uddalaydilar. Ijtimoiy ish bo'yicha mutaxassis na odamlarni va na muassasani o'zgartirishga urinmasligi kerak, faqat o'zaro munosabatlar usullarini o'zgartirishi to'g'ri yo'lga qo'yishni o'rgatishi darkor. Uchinchi tomon hisoblangan ijtimoiy ish mutaxassisi aynan shu vositachilik vazifasi uchun yaratilgan. Ijtimoiy ish - qiyin hayotiy vaziyatdagi odamlar va guruhlariga o'zaro yordam qilish, ko'maklashish hamda ularning psixoijtimoiy rehabilitatsiyasi va integratsiyasi faoliyati bilan shug'ullanuvchi sohadir .

Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha ijtimoiy ishning maqsadlari:

- 1) voyaga yetmagan shaxsning rivojlanishi, taraqqiy topishi, o'z-o'zini rivojlantirish, ijtimoiylashuvining asosiy sharti sifatida qulay ijtimoiy-psixologik muhitni yaratish natijasi bo'lgan o'quv jarayonini ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash;
- 2) voyaga yetmaganlar tomonidan amalga oshiriladigan har qanday huquqbuzarliklar yoki jinoyatlar deyarli istisno qiladigan ijtimoiy foydali mehnatga undash darajasiga erishish;
- 3) voyaga yetmaganning ijtimoiy muammolarni hal qilishda uning

imkoniyatlarini, resurslarini, uning muhitini yaxshilash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish;

4) mijozlarning mustaqillik darajasini oshirish, ularning qobiliyatlari, imkoniyatlari, hayotini boshqarish va paydo bo'layotgan muammolarni yanada samarali hal qilishga o'rgatish;

5) mijozlar uchun qulaylikni maksimal darajaga ko'tarishi mumkin bo'lgan muhitni yaratish, o'zlarining imkoniyatlarini ko'rsatish va qonun bilan ularga tegishli bo'lgan hamma imkoniyatlarni taqdim qilish;

6) jamiyatga moslashish va qayta moslashishga ko'maklashish;

7) shikastlanish, ruhiy buzilishlar hayot inqirozi, jismoniy holatga qaramay inson o'z-o'zini hurmat qilish, ehtirom ko'rsatish va boshqalarning hurmat-ehtiromi hissiyotini saqlab qolish bilan yashashi mumkin bo'lgan sharoit yaratish;

8) yakuniy maqsad sifatida - mijozning ijtimoiy ishchi xizmati yordamiga ehtiyoji yo'qolishiga erishish.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha ijtimoiy ishning vazifalari quyidagilardan iborat:

1) voyaga yetmagan shaxsning manfaatlarini himoya qilish; 2) voyaga yetmagan shaxsning psixologik-pedagogik xususiyatlarini, uning ijtimoiy muhitini, voyaga yetmaganning hayot sharoitlarini o'rganish, tahlil qilish; 3) voyaga yetmaganning muvaffaqiyatli moslashishi va ijtimoiylashishi uchun shart-sharoitlar yaratish; 4) ziddiyatli vaziyatlarni hal qilishda ishtirokni ta'minlash; 5) hayot va sog'liqni saqlashni, havfsizlikni ta'minlash; 6) jamoada sog'lom muhit yaratishga erishish; 7) voyaga yetmaganlar o'rtasida yomon odatlarning profilaktikasi, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish; 8) voyaga yetmaganlarga yordam ko'rsatishda o'qituvchilar, ota-onalar, ijtimoiy xizmatlar bilan o'zaro hamkorlik qilish; 9) voyaga yetmagan shaxsni muvaffaqiyatli tarbiyalash va shaxsini rivojlantirish, uning ijtimoiylashuvi va kasbiy rivojlanishi uchun ijtimoiy-psixologik sharoitlarni yaratish; 10) voyaga yetmaganlarning, ayniqsa og'ir hayotiy vaziyatda bo'lganlarning ijtimoiy vasiyligini va huquqlarini himoya qilish; 11) ta'lim faoliyatining ijtimoiy-psixologik ziddiyatlarini, o'quv jarayonini boshqarish uslubini o'rganish, ularning ta'lim muassasasi hayotiga salbiy ta'sirini profilaktika qilish maqsadida xatolarni aniqlash;

12) ta'lim jarayoni sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro tushunish va o'zaro munosabatlarni mustahkamlashga yordamlashish.

Voyaga yetmagan jinoyatchilar bilan ijtimoiy ishlarning asosiy yo'nalishi quyidagilardan iborat:

1. O'smir dunyoqarashi va uning yashash muhitini o'rganish; 2. O'spirin ma'lum bir turga shartli ravishda tayinlanishi va u bilan individual ishlashning asosiy

yo'nalishini ko'rib chiqish; 3. O'spirin bilan individual ishlashda ularning tasnifidan foydalangan holda ustuvor chora-tadbirlarni belgilash; 4. Ijtimoiy-ijobiy, samarali ta'sirini oshirishga qaratilgan individual ishning asosiy yo'nalishini -voyaga yetmagan shaxsning mustaqilligi holatini aniqlashtirish, uning dinamikasini o'rganish va eng oqilona usullardan foydalanish; 5. bajarilgan ishlarni tahlil qilish, yakunlash va umumlashtirish .

Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha ijtimoiy ish yo'nalishlari quyidagilarga qaratilgan:

- huquqbuzarlikka moyil bo'lgan noto'g'ri tarbiyalangan voyaga yetmaganlar uchun ijtimoiy reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish;
- voyaga yetmaganlarning deviant xatti-harakatlarini oldini olish maqsadida turli xil xizmatlarning o'zaro ta'sir darajasini yaxshilash bo'yicha tashkiliy ishlarni o'tkazish .

Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha ijtimoiy xizmatlarning asosiy yo'nalishlari quyidagilarni ham kiritishimiz mumkin:

- 1) voyaga yetmaganlar xulqida ijobiy namuna sifatida ota-ona shaxsini tarbiyalash;
- 2) o'smirlar – ota-onalar o'rtasida axloqiy-tarbiyaviy ishlarni olib borish;
- 3) voyaga yetmaganlarning shaxsiy manfaatlari va ehtiyojlarini o'rganish, rivojlantirish, ularning ijtimoiy ahamiyatga ega shaxs sifatida axloqiy rivojlanishiga hissa qo'shish;
- 4) voyaga yetmaganlarni oilada tarbiyalashda yo'l qo'yilgan kamchiliklarning o'rnini qoplash, unga muhtojlarga yordam ko'rsatish ishlarini tashkillashtirish (vasiylik va homiylikni belgilash, bolalar uyiga, maktab-internatga joylashtirish);
- 5) voyaga yetmaganlarni ijtimoiy mehnat, sport va ijodiy faoliyatga jalb qilish.

Voyaga yetmaganlarga ijtimoiy xizmat ko'rsatuvchi muassasalar:

bolalar va o'spirinlar uchun ijtimoiy boshpanalar; aholiga psixologik-pedagogik yordam markazlari; telefon orqali shoshilinch psixologik yordam ko'rsatish markazlari; uyda ijtimoiy yordam ko'rsatish markazlari (bo'limlari); ochiq va yopiq turdagi maxsus o'quv yurtlari; ijtimoiy xizmatlarning statsionar, jismoniy imkoniyati cheklangan bolalar uchun internatlar); ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatuvchi boshqa turdagi muassasalar .

Voyaga yetmaganlar uchun ijtimoiy xizmatlar tuzilmasi:

- 1) voyaga yetmaganlarning deviant xulqi va o'z joniga qasd qilish xatti-harakatlarining oldini olish uchun voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko'rsatish markazlari;
- 2) telefon orqali malakali, shoshilinch, anonim, ishonchli, bepul psixologik yordam ko'rsatadigan voyaga yetmaganlar uchun maslahat punktlari;

3) obektiv yoki subektiv sabablarga ko'ra begonalashtirilgan voyaga yetmaganlarning har tomonlama rivojlanishi uchun uning oilada, ta'lim muassasasida, jamiyatda rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadigan voyaga yetmaganlar uchun boshpanalar;

4) ozodlikdan mahrum qilish joylaridan qaytgan shaxslar uchun mo'ljallangan voyaga yetmaganlarni rehabilitatsiya qilish, ularga maslahat, ijtimoiy-huquqiy, kasbiy va psixologik yordam ko'rsatish markazlari;

5) ijro etuvchi hokimiyat organlariga, yoshlar bilan ishlovchi tashkilot va muassasalarga, volontyorlik klublariga, yoshlarning turli guruhlariga axborot-uslubiy xizmat ko'rsatuvchi voyaga yetmaganlar uchun axborot markazlari;

6) voyaga yetmaganlar va ularning huquqlarini himoya qilish komissiyalari;

Voyaga yetmaganlar bilan profilaktika ishlarining xususiyatlari:

Ularning mavjudligi jadal rivojlanish va shakllanish bosqichidagi jamiyatning ijtimoiy yosh guruhi sifatida voyaga yetmaganlarning huquqiy va ijtimoiy holatining o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, voyaga yetmagan huquqbuzarlarning shaxsiy imkoniyatlari va fazilatlari bilan belgilanadi.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha ijtimoiy ishning xususiyatlariga quyidagilar kiradi: diagnostika, profilaktika, moslashish, rehabilitatsiya, tuzatish, ijtimoiy terapiya, konsultatsiya, voyaga yetmagan shaxsga kerakli natijaga erishilgunga qadar hamrohlik qilish.

Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha ijtimoiy ishning o'ziga xos xususiyati shundaki, u voyaga yetmaganga va uning oilasiga o'ziga xos yondashuvni topishga imkon beradi, shuningdek, huquqbuzarlik va jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlar bilan ishlashda tizim hodimlariga yordam beradi.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Хакимов, С. (2022). АКТИВ ВА ПАССИВ СЕЙСМИК УСУЛЛАРИ ҲАМДА УЛАРИНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ. Journal of Integrated Education and Research, 1(2), 30-36.
2. Abdunazarov, A., & Soliev, N. (2020). STUDY OF THE PERFORMANCE OF FRAMELESS CONSTRUCTION STRUCTURES UNDER THE INFLUENCE OF VERTICAL STRESSES OF ULTRA-SUBMERGED THE LYOSS SOILS. Студенческий вестник, 28(126 часть 3), 39.
3. Yuldashev, S., & Hakimov, S. (2022). ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДАН КЕЛИБ ЧИҚАДИГАН ТЕБРАНИШЛАР ҲАҚИДА. Science and innovation, 1(A5), 376-379.
4. Шаропов, Б. Х., Хакимов, С. Р., & Рахимова, С. (2021). Оптимизация режимов гелиотеплохимической обработки золоцементных композиций.

Матрица научного познания, (12-1), 115-123.

5. Yuvmitov, A., & Hakimov, S. R. (2021). Influence of seismic isolation on the stress-strain state of buildings. Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 11(1), 71-79.

6. Хакимов, С., Шаропов, Б., & Абдуназаров, А. (2022). БИНО ВА ИНШООТЛАРНИНГ СЕЙСМИК МУСТАҲКАМЛИГИ БЎЙИЧА ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАР (РОССИЯ, ЯПОНИЯ, ХИТОЙ, АҚШ) МЕЎЁРИЙ ХУЖЖАТЛАРИ ТАҲЛИЛИ. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 806-809.

7. ЮВМИТОВ, А. С., & ХАКИМОВ, С. Р. (2020). ИССЛЕДОВАНИЕ ВЛИЯНИЯ СЕЙСМОИЗОЛЯЦИИ НА ДИНАМИЧЕСКИЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ ЗДАНИЯ. Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 10(2), 14.

8. Yuvmitov, A., & Hakimov, S. R. (2021). Influence of seismic isolation on the stress-strain state of buildings. Acta of Turin Polytechnic University in Tashkent, 11(1), 71-79.

9. Fathulloev A.M., Eshev S.S., Samiev L.N., Ahmedov I.G', Jumaboyev X., Arifjanov S. Boglanmagan gruntlardan tashkil topgan uzanlarda yuvilmaslik tezliklarini aniklash [To the determination of non-effective speed in the beds containing from unconnected soils] //Journal "Irrigatsiya va melioratsiya". Tashkent. – 2019. – С. 27-32.

10. Arifjanov A., Akmalov Sh., Akhmedov I., Atakulov D. Evaluation of deformation procedure in waterbed of rivers //IOP Conference Series: Earth and Environmental Science. – IOP Publishing, 2019. – Т. 403. – №. 1. – С. 012155.

11. Arifjanov A., Samiyev L., Akhmedov I., Atakulov D. Innovative Technologies In The Assessment Of Accumulation And Erosion Processes In The Channels //Turkish Journal of Computer and Mathematics Education (TURCOMAT). – 2021. – Т. 12. – №. 4. – Pp. 110-114.

12. Axmedov I.G', Muxitdinov M., Umarov I., Ibragimova Z. Assessment of the effect of sedibles from sokhsoy river to kokand hydroelectric power station //InterConf. – 2020.

13. Arifjanov A.M., Ibragimova Z.I., Axmedov I.G'. Analysis Of Natural Field Research In The Assessment Of Processes In The Foothills The American Journal of Applied sciences. – 2020. – Т. 2. – №. 09. – Pp. 293-298.

14. Арифжанов А.М., Самиев, Л.Н., Абдураимова, Д.А., Ахмедов, И.Г. Ирригационное значение речных наносов [Irrigation value of river sediments] //Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. – 2013. – №. 6.

15. Ахмедов И.Г., Ортиқов И.А., Умаров И.И. Дарё ўзанидаги деформацион жараёнлаарни баҳолашда инновацион технологиялар [Innovative

technologies in the assessment of deformation processes in the riverbed] // Фарғона политехника институти илмий-техника журнали. – Фарғона. – 2021. – Т.25, №.1. – С. 139-142.

16. Axmedov I.G', Ortiqov I.A., Umarov I.I. Effects of water flow on the erosion processes in the channel of GIS technology // <https://doi.org/10.5281/zenodo.5819579>

17. Tadjiboyev S., Qurbonov X., Akhmedov I., Voxidova U., Babajanov F., Tursunova E., Xodjakulova D. Selection of Electric Motors Power for Lifting a Flat Survey in Hydraulic Structures // AIP Conference Proceedings 2432, 030114 (2022); <https://doi.org/10.1063/5.0089643>